

## SIFAT SO‘Z TURKUMINI YANGI INNOVATSION METODLAR ORQALI O‘RGATISH

Husinova Xolida

*Toshkent gumanitar fanlar universiteti  
boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda sifat so‘z turkumini o‘qitishda yangi innovatsion metodlar asosida o‘qitilishi va dars jarayonini olib borishda yaxshi samara berishi haqida. O‘quvchilarga darsni qiziqarli va tushunarli bo‘lishi uchun ham innovatsion usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu kabi metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasidagi faollilikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga va mustaqil fikr yurita olish uchun xizmat qiladi.*

**Abstract:** *This article is about the teaching of quality vocabulary in elementary grades based on new innovative methods and its effectiveness in conducting the lesson. It is advisable to use innovative methods to make the lesson interesting and understandable for students. Such a method serves to activate students' knowledge acquisition, to develop their personal qualities and to be able to think independently by increasing the activity between students and the teacher in the educational process.*

**Kalit so‘z:** *o‘quvchi, metod, sifat, ma’no,zinama-zina, so‘z turkumi, boshlang‘ich sinf.*

**Key word:** *student, method, quality, meaning, level, vocabulary, primary class.*

Hammizga ma’lumki, bugungi kunda kelajak avlodni tarbiyasiga, ularga berilayotgan ta’lim sifatiga katta e’tibor qaratilmoqda. Bizning kelajagimiz bo‘lgan avlodni ruhan tetik va sog ‘lom, jismonan baquvvat va ma’naviy jihatdan ham komil inson qilib tarbiyalash eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun ham bugun o‘qituvchining ham bilim saviyasiga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Bu esa yosh avlodning kelajagi har tomonlama kafolatlanganligini ko‘rsatadi. Zamonaviy sharoitlar asosida innovatsion metodlar orqali darslarni tashkil qilish asosiy vazifa o‘qituvchilar zimmasiga yuklatilmoqda. Boshlang‘ich sinflarda sifat so‘z turkumini o‘rganish tizimi ketma-ket tizimli tarzda o‘rgatish mexanizimi mavjud. Ma’lumki, boshlang‘ich sinfda olgan bilimlar o‘quvchining hayotda qanday inson bo‘lishini ifodalovchi poydevor sifatida qaraladi. Ilgari boshlang‘ich sinflarda

o‘quvchi asosan o‘qish,yozish,fan doirasidagi dastlabki bilimlarni o‘zlashirishi kerak. deb qaralgan bo‘lsa,bugungi kunda o‘quvchini fikrlashga,faollikka,o‘z ustida ko‘proq ishlab mustaqillikni rivojlantirishga va bilimlarni mantiqiy jihatdan mukammal egallashga undovchi ta’lim jarayonining muhim bosqichi sifatida yondashilmoqda.

Dars jarayonida ta’limiy didaktik o‘yinlardan ko‘proq foydalanish maqsadga muvofiqdir.Bu kabi didaktik metodlar, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faoliyatida muhim o‘rinni egallaydi.Metodik o ‘yinlar o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stirishda asosiy vosita hisoblanadi.Bunday o‘yinlar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini osonlashtirishga,o‘quvchilarни darsga to‘liq jalb etishga yordam beradi.

Sifat so‘z turkumini o‘qitishda “Zinama-zina”metodi orqali o ‘rgatish yaxshi natija beradi.Undan istalgan darsda yoki istagan fanni o‘qitishda foydalanish mumkin. O‘yin o‘quvchilarни hozirjavoblikka, tezkorlikka, ziyraklikka, mushohada yuritishga, ijodkorlikka o‘rgatadi. Bu metodni quyidagicha amalga oshirish mumkin. Sinfdagи o‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadi. Shundan so ‘z har bir guruhdan bittadan o ‘quvchi chiqib savollarga javob berishi kerak. To‘g‘ri javobni ko‘rsatgan guruh bir zina yuqoriga ko‘tariladi. O‘qituvchi keyingi savolni o‘qiydi. Yana yuqoridagi holat qaytariladi. O‘quvchilarning faollik, tezkorlik guruhiiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar o‘quvchilar to‘g‘ri javobni ko‘rsata olmasa, guruh zinaning quyi pog‘onalarida qoladi. Birinchi bo‘lib savollarga javob berib zinaning yuqorisiga chiqsa o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

Savollar mantiqiy o ‘quvchining o ‘ylashga chaqiradigan, fikrlatadigan bo‘lishi kerak. Masalan:

- 1.Sifat so ‘z turkumi ishtirok etgan maqollardan ikkitasini ayting.
2. Sifatning darajasi ishtirok etgan bitta she’r ayting.
3. Sifat yasovchi qo ‘shimchasi mavjud bo‘lgan topishmoq ayting.
4. Sifatning ma’no turi ishtirok etgan tez aytish ayting.

Bunday savollar faqat sifat so‘z turkumini o‘rgatish bilan birga ularning maqol, she’rlarni ham yodlashga o‘rgatadi. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning tafakkurini o‘stirish, ularning mustaqil ishslash mahoratini oshirishga qaratiladi. Bundan tashqari ertaklar asosida ham oson tarzda sifat so‘z turkumini o‘rgatish mumkin. “Zumrad va Qimmat” ertagi asosida o‘rgatish juda yaxshi samara beradi. Chunki o‘quvchilar ertakni hamo ‘qish jarayonida ularning mustaqil fikrlash qobiliyati ham shakllanib boradi.

Buni o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lgan holda bajartirish mumkin. Topshiriq qilib oldindan ertakni o‘qib kelish topshiriladi. Har bir guruh ertakni o‘qigan bo‘lishi va beriladigan savollarga javob berishi kerak bo‘ladi. Shundan so‘ng

shart e'lon qilinishi kerak. Ikki guruhdan bittadan o'quvchi chiqishi kerak va birinchi savol beriladi.

1-guruh: Zumradning yettita xususiyatini yozing.

2-guruh: Qimmatning ham yettita xususiyatini yozing.

Ikkinci savolga yana boshqa ikkita o'quvchi chiqishadi. Ularga Zumradning onaning uyiga borgandagi uyning ta'rifini sifatning ma'no turlari bo'yicha tahlil qilib yozishlari kerak. Shu tarzda beriladigan savollarga aniq va lo'nda qilib javob berishlari lozim.



Har bir guruh shu rasmlardan foydalangan holda sifat so'z turkumi ishtirok etgan kichik matn tuzishlari kerak. Rasm asosida matn tuzish o'quvchilarining erkin fikr yuritishga va bog'lanishli matn tuza olish qobiliyati shakllanadi. O 'quvchilarni rasm orqali ranglarni farqlashga va rasmda tasvirlangan har bir narsani yoki insonlarni xususiyatlari, shakli kabi belgilari bilan yozishga ham o'rgatadi. Keyin o 'quvchilar tomonidan tuzilgan matn o'qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko'rsatiladi. Har bir o'qilgan matnni aniq qilib tekshirib, o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni aniqlashi va ularning qilgan xatolarini kuzatib, to'g'rilab borishdan iboratdir.

Bu kabi metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi faoliytni oshirish orqali o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga va mustaqil fikr yurita olish uchun xizmat qiladi. Dars samaradorligini oshirishga ham katta yordam beradi bu metodlar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.Hamrayev. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent-2015.
2. B.X.Xodjayev . Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. "Sano-standart" nashriyoti Toshkent-2017.
3. D.Tojiboyeva. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Toshkent "Iqtisod-moliya" 2018.